

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**  
**Termiz davlat universiteti**  
**rektori** A.Maraximov

06 / 06 / 2023 yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONLARI (kunduzgi)**

61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi  
(voleybol, kurash, yengil atletika, dzyudo, futbol).  
Umumiy jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar

**Termiz davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023 yil \_\_\_\_ dagi \_\_ - sonli majlis bayoni.**

**Tuzuvchilar:**

- |                  |  |
|------------------|--|
| X.A.Sharipov     | Sport boshqaruvi kafedrası mudiri, dotsent.                      |
| B.Q.Amonturdiyev | Jismoniy tarbiya va sport o'yinlari kafedrası mudiri, professor. |
| A.A.Haqqulov     | Sport boshqaruvi kafedrası katta o'qituvchisi.                   |
| R.N.Shoymardonov | Jismoniy tarbiya va sport o'yinlari kafedrası o'qituvchisi       |
| A.Q.Ustoyev      | Sport boshqaruvi kafedrası katta o'qituvchisi.                   |
| P.T.To'rayev     | Sport boshqaruvi kafedrası o'qituvchisi.                         |
| U.A. Chariyev    | Sport boshqaruvi kafedrası o'qituvchisi.                         |

**Taqrizchilar:**

- |                |   |
|----------------|---|
| Ya.Ch.Daniyeva | Sport faoliyati va boshqaruvi fakulteti dekani, p.f.n. dotsent.                               |
| R.X.To'laganov | Jismoniy tarbiya va sport o'yinlari kafedrası katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi. |
| I.A.Daminov    | Termiz pedagogika instituti, Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi kafedrası mudiri, professor |



**2023-2024 o'quv yili qabuli uchun abiturentlardan qabul qilinadigan  
ijodiy (kasbiy) imtihonlarning me'yoriy talabalari, baholash mezonlari  
hamda o'tkazish tartibi**

**KIRISH**

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakillantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarga o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustaxkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol topish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi xududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me'yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tadbiiq etib kelinmoqda.

Jumladan, 2022 yil 15 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risidagi" **PQ-279-son qarori**, 2018 yil 27 iyuldagi **VM-588-son qarori** bilan tasdiqlangan "Alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriyat ta'lim yo'nalishlariga kirish test sinovlarisiz kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomi, 2022 yil 3 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" **PQ-414-son qarori** va 2021 yil 24 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" **PQ-60-son qarorilari** shular jumlasidandir.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning Nukus va Fargona filiallaridagi Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi sport maktablari (SM), Respublika Olimpiy va paralimpiy zahiralari tayyorlash markazlari jismoniy tarbiya va sport dasturlari asosida tuzilgan, abiturientlarning jismoniy mashqlari bajarishdagi amaliy harakat ko'nikma va malakalarini baholashga mo'ljallangan.

Dasturda ijodiy (kasbiy) imtihonni o'tkazish tartibi, abiturientlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar hamda baholash mezonlari o'z aksini topgan.

**Dasturning maqsadi va vazifalari**

Dasturning asosiy maqsadi – abiturentlarning jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid egallangan bilim, ko'nikma va malakalari (jismoniy va sport turlari bo'yicha umumiy va maxsus tayyyorgarlik) holati darajasini belgilangan mezonlar asosida aniqlash hamda baholashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyatiga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalari to'g'risida"gi Nizomga muvofiq



2023/2024 o'quv yilida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul e'lon qilingan. Yuqoridagi ta'lim yo'nalishidan ya'ni sport faoliyati (faoliyati turlari bo'yicha) bo'yicha ko'p ballik baholash tizimi asosida kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladi (sport turlari bo'yicha me'yoriy talablar va baholash mezonlari ilova qilinadi). Abiturentlar tanlangan sport turidan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshiradilar.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazishda har bir abituriyentdan o'z qobiliyatini yuqori darajada namoyon qilishiga imkoniyat yaratiladi. Sport faoliyati (faoliyati turlari bo'yicha) bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon ballarining maksimal yig'indisi (summasi) sinov natijalariga ko'ra – 156 ballni tashkil etadi.

Tanlangan sport turi bo'yicha me'yoriy talablar sport turlarining xususiyatlariga oid mashqlardan tuzilgan.

### **Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi**

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish maxsus ishlab chiqilgan me'yorlarni qabul qilishdan iborat. Imtihonning har bir qismini topshirish yuqori jismoniy yuklama (nagruzka) va emonsional zo'riqishni talab etadi. Shuni hisobga olgan holda abiturentlarga qulaylik va o'z imkoniyatlarini yuqori darajada namoyon qilishlari uchun imkoniyat yaratish maqsadida ijobiy imtihonlar guruhlarga bo'lingan holda o'tkaziladi hamda bir necha imkoniyatning eng yaxshi natijasi tanlab olinadi.

### **Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi tartibda o'tkaziladi:**

a) abiturentning guruh ro'yxati va pasporti tekshirilgandan so'ng u imtihon topshirish uchun taklif qilinadi;

b) har bir abiturent tanlangan sport turi talablariga mos ravishda sport kiyimida bo'lishi lozim;

v) predmet komissiyasi raisi va imtihon qabul qiluvchilar abiturentlarga imtihonlarni topshirish tartibi va qoidalarini tushuntiradilar;

g) har bir abiturentga sport kiyimini kiyish, chigal yozdi mashqlari (razminka) bajarish va imtihon topshirishga tayyorlanish uchun vaqt beriladi;

d) har bir me'yor topshirilganidan so'ng abiturent tomonidan ko'rsatilgan natija va unga qo'yilgan tegishli (baholash mezonlariga muvofiq ravishda) ball e'lon qilinadi;

e) barcha me'yorlar qabul qilinganidan so'ng abiturentlarga kasbiy (ijodiy) imtihonda to'plangan umumiy ballari e'lon qilinadi;

j) kasbiy (ijodiy) imtihonlarni qayta topshirishga ruxsat etilmaydi;

z) kasbiy (ijodiy) imtihonlarga kechikib kelgan yoki uning birida ishtirok etmagan abiturentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshirishga qo'yilmaydi.

Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) – bo'yicha hujjat topshirgan abituriyentlar tanlangan sport turidan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshiradilar. Nogironligi mavjud abituriyentlar (nozologiya) bo'yicha, sog'lomlar sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshiradilar.

Sport faoliyati (xotin qizlar sportini rivojlantirish) yo'nalishi bo'yicha hujjat topshirgan abituriyentlar ayollarga mo'ljallangan sport faoliyati turlaridan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshiradilar.



# DZYUDO BO'YICHA KASBIY (IJODIY) IMTIXONLARNING ME'YORIY TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

(kunduzgi, sirtqi ta'lim erkaklar uchun)

## Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maksimal ball 63

(maksimal 63)

		21-16					15-11					10-6					5-1					0				
1.	Tik turgan holatdan ko'prik (most) holatiga tushib, aylana chopish, qo'llar qulfdek birlashtirilgan, bilaklar gilamga tegib turadi (xar bir tomonga 5 marta)	Bir xil sur'atda tomonlarga chopish. Bosh bilan gilamga tayangan xolatdan ko'prik va ko'prik xolatidan tayanch xolatiga o'tishda to'xtamay yuqori sur'atda, sakramasdan bajarish.					Tayanchdan ko'prik xolatiga va ko'prikdan tayanch xolatiga asosiy o'tishda bosh va bilakning dastlabki xolatidan 45° dan ortiq siljitish.					Faqat bir tomonga bajarildi. Past tezlikda, bosh burilib bajarildi.					Harakatlar axamiyatli xatolar bilan bajarildi.					Mashq bajarilmadi.				
	Xar bir noto'g'ri texnik xarakat uchun olinadigan ballar	0-5					0-5					0-5					0-5					0-5				
2.	Ko'prik holatida 8 marta boshdan oshib hatlab sakrashlar (soniya)	<b>vazn</b>					<b>vazn</b>					<b>vazn</b>					<b>vazn</b>					<b>vazn</b>				
		60	70	80	90	+90	60	70	80	90	+90	60	70	80	90	+90	60	70	80	90	+90	60	70	80	90	+90
	Xar bir noto'g'ri texnik xarakat uchun olinadigan ballar	14	14	14,5	15	15,5	14,5	14,5	15	15,5	16	15	15	15,5	16	16,5	15,5	15,5	16	16,5	17	15,6	15,6	16,1	16,6	17,1
3.	Tik turgan holatdan ko'prik holatiga 8 marta tushish (soniya)	14	14	14,5	15	15,5	14,5	14,5	15	15,5	16	15	15	15,5	16	16,5	15,5	15,5	16	16,5	17	15,6	15,6	16,1	16,6	17,1
	Xar bir noto'g'ri texnik xarakat uchun olinadigan ballar	0-5					0-5					0-5					0-5					0-5				

**Izox:** Maxsus jismoniy tayyorgarlik me'yorlarni bajarishda yo'l qo'yilgan xar bir noto'g'ri xarakat uchun, (vaqt meyoridan tashqari) 4-5 balldan olinadi. Sportchilarning tana vazni keltirilgan vazndan 5 kg yuqori bo'lsa (masalan: 66,67,68,69) undan keyingi vazn toifasi meyoriy bahosi qo'yiladi. Tana vazni qancha og'ir bo'lsa belgilangan vaqt meyyorlari ham ortib boradi. Xar bir noto'g'ri texnik xarakat uchun 0-5 ball oralig'ida jarima ballari qo'llaniladi.

\*Agar ko'rsatkichlar belgilangan me'yorlar oralig'ida bo'lsa, abiturent xisobiga xal etiladi.

“Sport boshqaruvi” kafedrasi mudiri, dots.

“Sport boshqaruvi” kafedrasi katta o'qituvchisi

 X.A. Sharipov  
 A.Q. Ustayev

# DZYUDO BO'YICHA KASBIY (IJODIY) IMTIXONLARNING ME'YORIY TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

(kunduzgi, sirtqi ta'lim ayollar va xotin-qizlar uchun)

**Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maksimal ball 63**

(maksimal – 63 ball)

1.	Tik turgan holatdan ko'prik (most) holatiga tushib, aylana chopish, qo'llar qulfdek birlashtirilgan, bilaklar gilamga tegib turadi (xar bir tomonga 5 marta)	<b>21-16</b>	<b>15-11</b>	<b>10-6</b>	<b>5-1</b>	<b>0</b>																				
	Bir xil sur'atda tomonlarga chopish. Bosh bilan gilamga tayangan xolatdan ko'prik va ko'prik xolatidan tayanch xolatiga o'tishda to'xtamay yuqori sur'atda, sakramasdan bajarish.	Tayanchdan ko'prik xolatiga va ko'prikdan tayanch xolatiga asosiy o'tishda bosh va bilakning dastlabki xolatidan 45° dan ortiq siljitish.	Faqat bir tomonga bajarildi. Past tezlikda, bosh burilib bajarildi.	Harakatlar axamiyatli xatolar bilan bajarildi.	Mashq bajarilmadi.																					
	Xar bir noto'g'ri texnik xarakat uchun olinadigan ballar	0-5	0-5	0-5	0-5	0-5																				
2.	Ko'prik holatida 8 marta boshdan oshib hatlab sakrashlar (soniya)	<b>vazn</b>					<b>vazn</b>					<b>vazn</b>					<b>vazn</b>					<b>vazn</b>				
		50	60	70	80	+80	50	60	70	80	+80	50	60	70	80	+80	50	60	70	80	+80	50	60	70	80	+80
	15	15	15,5	16	16,5	15,5	15,5	16	16,5	17	16	16	16,5	17	17,5	16,5	16,5	17	17,5	18	16,6	16,6	17,1	17,6	18,1	
	Xar bir noto'g'ri texnik xarakat uchun olinadigan ballar	0-5	0-5	0-5	0-5	0-5																				
3.	Tik turgan holatdan ko'prik holatiga 8 marta tushish (soniya)	15	15	15,5	16	16,5	15,5	15,5	16	16,5	17	16	16	16,5	17	17,5	16,5	16,5	17	17,5	18	16,6	16,6	17,1	17,6	18,1
	Xar bir noto'g'ri texnik xarakat uchun olinadigan ballar	0-5	0-5	0-5	0-5	0-5																				

**Izo:** Maxsus jismoniy tayyorgarlik me'yorlarni bajarishda yo'l qo'yilgan xar bir noto'g'ri xarakat uchun, (vaqt meyoridan tashqari) 4-5 balldan olinadi. Sportchilarning tana vazni keltirilgan vazndan 5 kg yuqori bo'lsa (masalan; 66,67,68,69) undan keyingi vazn toifasi me'yoriy bahosi qo'yiladi. Tana vazni qancha og'ir bo'lsa belgilangan vaqt me'yorlari ham ortib boradi. Xar bir noto'g'ri texnik xarakat uchun 0-5 ball oralig'ida jarima ballari qo'llaniladi.

\*Agar ko'rsatkichlar belgilangan me'yorlar oralig'ida bo'lsa, abiturent xisobiga xal etiladi.

“Sport boshqaruvi” kafedrası mudiri, dots.

“Sport boshqaruvi” kafedrası katta o'qituvchisi

 X.A. Sharipov  
 A.Q. Ustayev



**DZYUDO BO‘YICHA KASBIY (IJODIY) IMTIXONLARNING ME‘YORIY TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI**  
(kunduzgi, sirtqi ta‘lim erkaklar, ayollar va xotin-qizlar uchun)

**Ixtisoslik bo‘yicha maksimal ball 93**

*(maksimal – 93 ball)*

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>Normativlar</i>	<i>Ballar</i>				
1.	<b>Yiqilishlar:</b> Ukemi (Yiqilish usullari) (6 ball)	<b>6-4,6</b>	<b>4,5-3,1</b>	<b>3-1,6</b>	<b>1,5-0,1</b>	<b>0</b>
		Baland sakrash, erga yumshoq tushish, xarakat texnik jixatdan to‘g‘ri va aniq bajarildi.	Sakrash etarlicha baland emas, bosh erga tekkan xolda yiqilish.	Yon tomonlarga yiqilish. Bel bilan gilamga urilish.	Xarakat texnik jixatdan noto‘g‘ri bajarildi.	Texnik xarakatlar bajarilmadi
2.	<b>Shintai</b> (Muvozanat saqlagan holda harakatlanish) (4 ball)	<b>4-3,1</b>	<b>3-2,1</b>	<b>2-1,1</b>	<b>1-0,1</b>	<b>0</b>
		Baland sakrash, erga yumshoq tushish, xarakat texnik jixatdan to‘g‘ri va aniq bajarildi.	Sakrash etarlicha baland emas, bosh erga tekkan xolda yiqilish.	Yon tomonlarga yiqilish. Bel bilan gilamga urilish.	Xarakat texnik jixatdan noto‘g‘ri bajarildi.	Texnik xarakatlar bajarilmadi
3.	<b>Yiqitishlar:</b> Okuri-ashi-harai (raqibni yurgizgan holatda yondan ilib tashlash) (6 ball)	<b>6-4,6</b>	<b>4,5-3,1</b>	<b>3-1,6</b>	<b>1,5-0,1</b>	<b>0</b>
		Yaxshi ushlagan holda tez harakat bilan to‘xtamasdan, raqibning muvozanatidan foydalanib bajarildi.	Yaxshi ushlash bilan o‘rtacha sur‘atda bajarildi.	Bo‘sh ushlash bilan o‘rtacha sur‘atda bajarildi. Raqibning muvozanatidan foydalanilmadi.	Texnik harakatlar axamiyatli xatolar bilan bajarildi.	Texnik harakatlar bajarilmadi
4.	Uki-otoshi (muvozanatdan chiqarib oldiga tashlash) (6 ball)	<b>6-4,6</b>	<b>4,5-3,1</b>	<b>3-1,6</b>	<b>1,5-0,1</b>	<b>0</b>

		Yaxshi ushlagan holda tez harakat bilan to'xtamasdan, raqibning muvozanatidan foydalanib bajarildi.	Yaxshi ushlash bilan o'rtacha sur'atda bajarildi.	Bo'sh ushlash bilan o'rtacha sur'atda bajarildi. Raqibning muvozanatidan foydalanilmadi.	Texnik harakatlar ahamiyatli xatolar bilan bajarildi.	Texnik harakatlar bajarilmadi
5.	<b>Nage-vadza:</b> Uchi-mata (Chap tomonga tashlash) (raqib oyoqlari orasidan oyoq bilan ko'tarib tashlash) (9 ball)	9-6,8 Tashlash yaxshi ushlash bilan, yuqori sur'atda katta amplituda bilan bajarildi.	6,7-4,5 Tashlash yaxshi ushlash bilan, lekin kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	4,4-2,2 Tashlash bo'sh ushlash va kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	2,1-0,1 Texnik harakatlar ahamiyatli xatolar bilan bajarildi.	0 Texnik harakatlar bajarilmadi.
6.	Uchi-makikomi (qo'ldan ushlagan holda aylanib yelkadan oshirib tashlash) (9 ball)	9-6,8 Tashlash yaxshi ushlash bilan, yuqori sur'atda katta amplituda bilan bajarildi.	6,7-4,5 Tashlash yaxshi ushlash bilan, lekin kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	4,4-2,2 Tashlash bo'sh ushlash va kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	2,1-0,1 Texnik harakatlar ahamiyatli xatolar bilan bajarildi.	0 Texnik harakatlar bajarilmadi.
7.	Sumi-gaeshi (qo'l va yelkadan ushlab oyoq bilan bosh ustidan oshirib tashlash) (9 ball)	9-6,8 Tashlash yaxshi ushlash bilan, yuqori sur'atda katta amplituda bilan bajarildi.	6,7-4,5 Tashlash yaxshi ushlash bilan, lekin kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	4,4-2,2 Tashlash bo'sh ushlash va kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	2,1-0,1 Texnik harakatlar ahamiyatli xatolar bilan bajarildi.	0 Texnik harakatlar bajarilmadi.
8.	O-gruma (buralgan holatda oyoqlar bilan oldidan chalib tashlash) (9 ball)	9-6,8 Tashlash yaxshi ushlash bilan, yuqori sur'atda katta amplituda bilan bajarildi.	6,7-4,5 Tashlash yaxshi ushlash bilan, lekin kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	4,4-2,2 Tashlash bo'sh ushlash va kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	2,1-0,1 Texnik harakatlar ahamiyatli xatolar bilan bajarildi.	0 Texnik harakatlar bajarilmadi.



9.	O-osoto-gruma (ikki oyoqadan orqaga qaytarib tashlash) (9 ball)	9-6,8	6,7-4,5	4,4-2,2	2,1-0,1	0
		Tashlash yaxshi ushlar bilan, yuqori sur'atda katta amplituda bilan bajarildi.	Tashlash yaxshi ushlar bilan, lekin kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	Tashlash bo'sh ushlar va kichik amplituda bilan bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	Texnik harakatlar axamiyatli xatolar bilan bajarildi.	Texnik harakatlar bajarilmadi.
10.	Ne-vaza: Ude-hishigi-sankaku-gatame (oyoq va qo'l bilan boshni ushlagan holatda tirsakka og'ritish usuli) (10 ball)	10-7,6	7,5-5,1	5-2,6	2,5-0,1	0
		Yaxshi ushlar bilan oyoqlarni harakatlantirib bajarildi. Harakat to'xtovsiz aniq va tez sur'atda bajarildi	Yaxshi ushlar bilan oyoqlarni harakatlantirgan holda bajarildi. Harakatlar o'rtacha tezlikda.	Bo'sh ushlar bilan va oyoqlarni sust xarakatlantirgan holda bajarildi. Kurashchi harakatlari o'rtacha sur'atda.	Texnik harakatlar axamiyatli xatolar bilan bajarildi.	Texnik harakatlar bajarilmadi.
11.	Katame-vaza. Kesa-gatame, yoko-shiho-gatame, kami-shiho-gatame, tate-shiho-gatame (ushlar usullari) (yontomandan ushlar, oyoq orasiga va boshidan ushlar, bosh tomondan ushlar, ustidan ushlar) (16 ball)	16-12,1	12-8,1	8-4,1	4-0,1	0
		Xarakat texnik jixatdan to'g'ri, xarakat (kuch) gavdaning ma'lum bir qismiga jamlash bilan bajarildi.	Xarakat texnik jixatdan to'g'ri, gavdaning ma'lum qismlarida axamiyatsiz xarakatlar bilan bajarildi.	Xarakat xatolar bilan bajarildi, kuch noto'g'ri yo'naltirildi.	Xarakat texnik jixatdan noto'g'ri bajarildi	Texnik xarakatlar bajarilmadi.

**Izox:** Sportchi bajargan texnik usullarning sifatiga, ushlar holatlariga, usulni bajarganda raqibining yiqilish amplitudasiga, hamda texnik usulning tugallanishlariga qarab oraliq ballar qo'yiladi. Texnik usullar oddiydan murakkabga qarab bajariladi, shundan kelib chiqib xar bir notog'ri xarakatlarga birinchi, uchinchi va to'rtinchi blokda usullar uchun 1,5 ballgacha ikkinchi blokda usullar uchun 1 ballgacha, beshichi va to'qqizinchi blokda usullar uchun 2,3 ballgacha, o'ninchi blokda usullar uchun 2,5 ballgacha, o'n birinchi blokda usullar uchun 4 ballgacha olinadi.

\*Agar ko'rsatkichlar belgilangan me'yorlar oralig'ida bo'lsa, abiturent xisobiga xal etiladi.

“Sport boshqaruvi” kafedrasini mudiri, dots.

“Sport boshqaruvi” kafedrasini katta o'qituvchisi

 X.A. Sharipov  
 A.Q. Ustayev